

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

УДК. 63.5995.+633

## PATISSON NAV NAMUNALARINI KASALLIKLARGA CHIDAMLILIGINI KUZATISH



**Kenjayeva To'lg'onoy Rahmonovna**

*Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik*

*ilmiy-tadqiqot instituti 3-bosqich tayanch doktoranti*

*Telefon raqami: +99-899-572-91-33*

*Kenjayeva67@mail.ru*

*ORCID 0000-0002-2528-2994*

**Аннотация.** Bu maqolada patisson o'simligi kasalliklari hamda kasalliklarga chidamliligini aniqlash haqida ma'lumotlar berilgan. O'simliklarda turli sabablar – kasallik qo'zg'atuvchilar hamda noqulay tashqi sharoit ta'sirida turli kasalliklar kelib chiqadi. Bular organizm funksiyasi (fotosintez, nafas olish, o'stiruvchi moddalar harakati) ning buzilishiga, o'simlikning butunlay nobud bo'lishi yoki ba'zi organlarning zararlanishga olib keladi. O'simliklar kasalliklari hosilni kamaytirib, sifatni buzadi.

**Абстрактный.** В данной статье представлена информация об определении болезней растений тыквы и устойчивости к ним. Различные заболевания у растений возникают под воздействием различных причин — возбудителей болезней и неблагоприятных внешних условий. Они приводят к нарушению функций организма (фотосинтеза, дыхания, движения ростовых веществ), полной гибели растения или повреждению некоторых органов. Болезни растений снижают урожайность и ухудшают качество.

**Abstract.** This article provides information on the determination of squash plant diseases and resistance to diseases. Various diseases occur in plants due to various reasons - pathogens and adverse external conditions. These lead to disruption of the body's functions (photosynthesis, respiration, movement of growth substances), complete death of the plant or damage to some organs. Plant diseases reduce yields and deteriorate quality.

**Калит so'zlar.** Fuzarioz so'lish. O'rgimchakkana. Oq qanot. HMR ni aniqlash. Besh balli skala. HMR ni hisoblash formulasi.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

**Ключевые слова.** Фузариозное увядание. Белое крыло. Определение HMR. Пятибалльная шкала. Формула расчета HMR.

**Keywords.** Fusarium wilt. Spider mite. Whitefly. Determination of HMR. Five-point scale. Formula for calculating HMR.

**Kirish.** Polizchilikning asosiy vazifalaridan biri aholini yil davomida poliz mevalariga bo'lgan talabini qondirish, yuqori texnologiyalar, mexanizatsiyani qo'llab, sarf-xarajatlarni kamaytirishdir. O'zbekiston asrlar davomida sabzavot va polizchilik keng rivojlangan mintaqa

hisoblanib, so'nggi yillarda bu sohaga yangi texnologiyalar joriy qilish ustida ilmiy izlanishlar borilmoqda.[8]

Soha mutaxassisleri oldida O'zbekistonda poliz ekinlari ichida yangi duragay ekin patissonning yangi navlarini O'zbekiston janubida ekishga moslashtirish hamda undan mo'l hosil olish, uni foydali xususiyatlarini aholiga tushuntirib yetkazish, undan olinadigan potensial hosilini yanada oshirish, aholini poliz mevalari bilan mumkin qadar uzoqroq vaqt ta'minlash, buning uchun esa ertapishar, kasallikka chidamli va uzoq vaqt saqlanuvchan navlar yaratishdek muhim masala turibdi.[6]

Patissonning 2 ta navi (Oq-13, Zarkokil) 1988 yilda O'zbekistonda yaratildi, ularning agrotexnikasi ishlab chiqildi, fan sohasida erishilgan yutuqlarni amalda qo'llash natijasida hosildorlik bir muncha ko'tarildi. Bugungi kunda yer va suv resurslari chegaralanganligi, iqlim o'zgarishi, urbanizatsiya, tabiiy talofatlar, aholi sonining oshib borishi butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi masalasini birinchi darajadagi muammoga aylantirdi.

Kasalliklarga chidamli, onalik gullari ko'p meva sifati yuqori nav va duragaylarni yaratishda amaliy seleksiyaga tavsiyalar ishlab chiqish uchun mahalliy va chet eldan keltiriladigan navlar o'rganiladi, qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha baholanadi. Mevasi yuqori ko'rsatkichlarga ega, genotip va fenotip jihatdan birxillikka kelgan namunalar diallel uslubida o'zaro chatishtiriladi. Har bir kombinatsiyadan olingan patissonlarda hosildorlik ko'rsatkichi, belgilarning dominant yoki resessiv holda irsiylanishi hamda turli belgilari bo'yicha ko'rsatkichlari aniqlanadi. Yuqori natija ko'rsatgan ota-ona kombinatsiyalaridan nav yaratish jarayonida foydalaniladi. Patissonning Yevropa davlatlarida ekiladigan sifatli nav namunalarini O'zbekiston janubiy mintaqalarida ekishga moslashtirish va ularni duragaylash tufayli yangi issiq iqlimga moslashgan, serhosil, kasallik va noqulay sharoitlarga chidamli navlarni yaratish va urug'chilik texnologiyasi elementlarini ishlab chiqish asosiy vazifalardan

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

biridir.[4] O‘zbekiston janubida sifatli navlarni yaratish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqot ishlari 2019-yil 23-oktabr PQ-5853-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasini 2020-2030 yillarda rivojlantirishning harakatlar strategiyasi”da aholini oziq-ovqat xavfsizligini va to‘g‘ri ovqatlanish madaniyatini ta‘minlash asosiy vazifalardan biri qilib belgilangan.<sup>1</sup>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 dekabrda PQ-4549 sonli «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida» gi qarorida ham bu dolzarb vazifa ilgari surilgan.<sup>2</sup> Ushbu vazifalarni bajarishda iste‘molchilarning talabiga binoan ekologik toza mahsulot yetishtirish va ularni mavsumdan tashqari paytlarda mahsulot bilan ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda yer va suv resurslari chegaralanganligi, iqlim o‘zgarishi, urbanizatsiya, tabiiy talofatlar, aholi sonining oshib borishi butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi masalasini birinchi darajadagi muammoga aylantirdi.[7]

## Adabiyotlar sharhi.

Patisson muhim sabzavot va poliz ekinlari qatoriga kiradi, ularning mevalari va urug‘lari yuqori parhezlik, davolash va profilaktika uchun yuqori qiymatiga ega, konserva sanoati, pazandachilik uchun xom ashyo bo‘lib xizmat qiladi, uzoq muddat saqlash mumkin, aholining vitaminlarga bo‘lgan ehtiyojini uzoq vaqt davomida qondirish mumkin (B.A. Лудилов, О.В. Чернявская, М.В. Долженко 2007).

Patisson nav namunalarining kasalliklarga chidamliligi (NMR) bali o‘simlik gullashi boshlanishi davridan to ommaviy gullashgacha bo‘lgan davrda olib borildi. Kasallanish darajasi o‘simlik barglarining ustki qismidagi holatiga qarab 5 ballik shkala bo‘yicha kuzatildi. 0-sog‘lom o‘simlik; 0-1-sezilar-sezilmas bitta dog‘ paydo bo‘lsa; 1-bargning 4\1 qismi yuzasini qoplasa; 2-barg yuzasini 4\2 qismini qoplasa; 3-barg yuzasini 4\2 qismidan ko‘prog‘ini qoplasa.[Bodring yetishtirish bo‘yicha metodik ko‘rsatma. 1985 yil].

Patissonning morfologik belgilari va xususiyatlari baholangan. O‘simlik shakli,

<sup>1</sup> 2019-yil 23-oktabr PQ-5853-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasini 2020-2030 yillarda rivojlantirishning harakatlar strategiyasi”da aholini oziq-ovqat xavfsizligini va to‘g‘ri ovqatlanish madaniyatini ta‘minlash asosiy vazifalardan biri qilib belgilangan.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 dekabrda PQ-4549 sonli «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida» gi qarorida ham bu dolzarb vazifa ilgari surilgan.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

poyaning shoxlanishi, poyaning o'sish darajasi, barg va meva xususiyatlari hisobga olingan. Patissonni ta'm sifatini aniqlashda degustatsiyadan foydalanilgan. Meva ta'm-sifatini aniqlash va baholash Meva-sabzavotlarni saqlash va qayta ishlash bo'yicha metodik ko'rsatma (Shirokov Y.P.,1964) asosida olib borilgan.

**Material va uslublar.** Patisson ekinlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar SPE va KITI Surxondaryo ilmiy tajriba stanstiyasida olib borildi. Tajribalar quyidagi uslub va uslubiy ko'rsatmalar asosida olib borildi:

- методические указания по экологическому испытанию овощных культур в открытом грунте (М., ВНИИССОК, 1987. Част 1);
- методические указания по селекции зелёных, пряно-вкусовых и многолетних овощных культур (М., ВИР-ВНИИССОК,1987);
- руководство по апробации овощных культур и кормовых корнеплодов (М., «Колос», 1982);
- методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур (М., 2019. Част 1);
- методика полевого опыта (Доспехов Б.А.,1985).

## Natijalar va munozara.

Ilmiy-tadqiqotda 12 ta patisson nav namunalarida uchragan kasalliklar ustida kuzatuvlar olib borilgan. Umumiy moslashish qobiliyatining yuqori darajasi Marsianin namunalarida kuzatilgan. Mahsuldorlik Cheburashkada qayd etilgan.

Patisson o'simligining vegetatsiya davri oxirida kasalliklarga chidamliligi va kimyoviy tarkibi aniqlandi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida patisson o'simligi nav namunalarining kasallanish darajasi turlicha ekanligi ma'lum bo'ldi. Kasallikka chidamliligi (NMR) bo'yicha oq patissonlardan sambrero, yashil rangli patissonlardan marsianin hamda sariq patissonlardan solnishko aniqlandi.

Kasallikka chidamliligi (NMR) bo'yicha oq patissonlardan sambrero, yashil rangli patissonlardan marsianin hamda sariq patissonlardan solnishko aniqlandi.

### 1-jadval. Patisson nav namunalarining kasalliklarga chidamliligi (NMR)

№	Kuzatish olib borilgan	Kasalliklarga chidamlilik darajasi
---	------------------------	------------------------------------

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

	patisson nav namunalari	(NMR), bali	
		2023	2024
1	Oq-13 st.	1-2	1
2	Sambrero	0-1	1
3	Cheburashka	2-3	1-3
4	Pyatichok	0-2	2
5	Solnishko zelyoniy	2-3	0-2
6	Marsianin	0-1	0
7	Disk	2-3	2-3
8	Arbuzinka	1-2	0-1
9	Solnishko	0-1	0
10	Patisson naf-naf	2-3	2-3
11	Patisson Nuf-nuf	1-2	2
12	Patisson groshik	0-2	1-2

Namunalardan Oq-13, Sambrero, Arbuzinka navlari kasallikka chidamlilik bali 1 ga teng, ya'ni o'rtacha chidamlilik baliga ega. Kasallikka chidamliligi past balga (2-3) ega bo'lgan patissonlar Naf-naf, patisson Nuf-nuf va patisson Groshik ekanligi aniqlandi. Tanlab olingan nav namunalari kimyoviy analiz o'tkazildi.

Patisson Sambrero tarkibida 6,22 % quruq modda, 9,42 mg % vitamin C, 2,81 % qand moddasi borligi kuzatildi. Yashil patisson Marsianin tarkibida vitamin C 4,83 mg %, 4,24 % quruq modda, 1,84 % qand borligi aniqlandi.

## Xulosa.

Iqtisodiy jihatdan qimmatli xo'jalik xususiyatlari jihatidan Cheburashka ajralib turadi. Yumshoq, kigizga o'xshash kichik tukchalar bilan namuna qoplangan.

Solnishko zelyoniy namunasi NMRga chidamli. O'rtacha barqarorlik balli 1 ga teng. Oq rangli namunalari Disk navida (2-3), Sambrero va Oq-13 da o'rtacha ball 1 ga teng. Yashil-mevali Marsianin (0-1). Ular erta yetuklik bilan ajralib turadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chernyavskaya, O.V. Perspektivny gibridnogo semenovodstva kabachka i patissona v Nechernozemnoy zone Rossii / V.A. Ludilov, O.V. Chernyavskaya, M.V. Doljenko // Sovremennoe sostoyanie i perspektivny razvitiya obovovodstva i kartofelevodstva. - Barnaul, - 2007. - S. 388-391.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 13.14/2024

SJIF 2024 = 5.444

Том 3, Выпуск 02, февраль

2. Chernyavskaya, O.V. Sorta i gibridy kabachka i patissona / V.A. Ludilov, O.V. Chernyavskaya, M.V Doljenko //Vash selskiy konsultant.- 2007.- № 2.- S.30.
3. Chernyavskaya, O.V. Seleksiya kabachka i patissonov v Rossii / V.A. Ludilov, O.V.Chernyavskaya, M.V. Doljenko //Sbornik nauchnykh trudov po ovoшеvodstvu i baxchevodstvu pod red. Litvinova S.S.- Volgograd, - 2008. -S. 114 - 123.
4. Chernyavskaya, O.V. Patisson rasshiryayet assortiment dieticheskoy produkcii / O.V.Chernyavskaya // Kartoffel i ovoшi.- 2009. - №4.S.14-15.
5. Durxodjaev Sh.F., Islamov S.Ya. Patisson navlarini asosiy va takroriy ekin sifatida yetishtirishda maqbul ekish muddatlarini aniqlash // “Agro kimyo himoya va o‘simliklar karantini” jurnali. – Toshkent, 2023. – № 2/2023. – B. 55-57.
6. Durxodjaev Sh.F., Islamov S.Ya. Patisson navlariga asosiy ekishda maqbul ekish muddatini aniqlash // “O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi”. jurnali. – Toshkent, 2023. – № 2 (8)/2023. – B. 145-147 (06.00.00. № 7)
7. O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat Reyestri. T., 2016, 2017, 2018 yy.
8. Buriyev X.CH., Ashurmetov O.A. Poliz ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. T., “Mehnat” 2000. -B. 96.
9. Buriyev X.CH., Zuyev V.I., Umarov A.A. Polizchilikdan amaliy mashg‘ulotlar. T., 1997. –B. 102.
10. Buriyev X.CH., Zuyev V.I., Gafurova L.A., Adilov M.M. Baxcheviye kulturi: proizvodstvo, ispolzovaniye, puti povisheniya kachestva. T. ToshDAU. 2005. –S. 1